MAMARASULOV Xolmat Davronovich
Sherobod tuman 8-son Bolalar musiqa
va san'at maktabi o'qituvchisi
E-mail: mkholmat@inbox.ru

BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI FORTEPIANO SINFLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): MAMARASULOV X.D. Bolalar musiqa va san'at maktabi fortepiano sinflarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning pedagogik asoslari // Madaniyat ta'limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 57.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy musiqa pedagogikasining dolzarb muammolaridan biri bolalar musiqa va san'at maktablarida (BMSM) o'ziga xos ta'limiy ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar uchun inklyuziv fortepiano ta'limini tashkil etishning nazariy-metodik va amaliy-pedagogik asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolada Sherobod tuman 8-son BMSM negizida 2025/2026-yillarda olib borilgan eksperimental tadqiqot ishlari va amaliy tajribalar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning motorik, nevrologik va kognitiv nuqsonlarini korreksiya qilishda individual pedagogik yondashuv, ota-onalar bilan integratsiyalashgan hamkorlik modeli, shuningdek, an'anaviy texnik majmualar (gamma, Hanon mashqlari, Cherni etyudlari) hamda moslashtirilgan o'zbek milliy kuylari va sodda fortepiano pyesalarining variativ qo'llanilishi ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *inklyuziv musiqa ta'limi, fortepiano pedagogikasi, individual ta'lim dasturi (ITD), korreksion-pedagogik model, tayanch-harakat apparati nuqsonlari, nevrologik xususiyatlar, mayda motorika, Hanon mashqlari, Cherni etyudlari, musiqiy reabilitatsiya.*

МАМАРАСУЛОВ Холмат Давронович
Преподаватель Детской школы музыки
и искусств №8 Шеробадского района
E-mail: mkholmat@inbox.ru

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В КЛАССАХ ФОРТЕПИАНО ДЕТСКОЙ ШКОЛЫ МУЗЫКИ И ИСКУССТВ

АННОТАЦИЯ

Данная научная статья посвящена исследованию теоретико-методических и практико-педагогических основ организации инклюзивного обучения игре на фортепиано для учащихся с особыми образовательными потребностями в детских школах музыки и искусств (ДШМИ). В статье анализируется опытно-экспериментальная работа, проведенная в 2025-2026 годах на базе ДШМИ №8 Шеробадского района. Автором научно и методически обосновано вариативное применение индивидуального педагогического подхода, интегрированной модели сотрудничества с родителями, а также традиционных технических комплексов (гаммы, упражнения Ганона, этюды Черни), адаптированных узбекских национальных мелодий и простых фортепианных пьес в коррекции моторных, неврологических и когнитивных нарушений учащихся в инклюзивной образовательной среде.

Ключевые слова: *инклюзивное музыкальное образование, педагогика фортепиано, индивидуальная образовательная программа (ИОП), коррекционно-педагогическая модель, нарушения опорно-двигательного аппарата, неврологические особенности, мелкая моторика, упражнения Ганона, этюды Черни, музыкальная реабилитация.*

MAMARASULOV Kholmat
Teacher of Children's Music
and Art School No. 8 of the Sherobod district
E-mail: mkholmat@inbox.ru

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION IN PIANO CLASSES OF CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS

ANNOTATION

This scientific article is devoted to the study of the theoretical, methodical, practical, and pedagogical foundations of organizing inclusive piano education for students with special educational needs in children's schools of music and arts (CSMA). The paper analyzes the experimental and practical research conducted in 2025-2026 on the basis of CSMA No. 8 of the Sherobod district. The author scientifically and methodically substantiates the variative application of an individual pedagogical approach, an integrated model of cooperation with parents, as well as traditional technical complexes (scales, Hanon exercises, Czerny etudes), adapted Uzbek national melodies, and simple piano pieces in the correction of motor, neurological, and cognitive impairments of students within an inclusive educational environment.

Keywords: *inclusive music education, piano pedagogy, individual educational program (IEP), correctional-pedagogical model, musculoskeletal disorders,*

neurological characteristics, fine motor skills, Hanon exercises, Czerny etudes, musical rehabilitation.

Kirish. XXI asr jahon ta'lim paradigmasining markazida insonparvarlik, ijtimoiy tenglik va barcha qatlamlar uchun ta'limning determinalligini ta'minlash prinsiplari yotadi [1]. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim siyosatida ham imkoniyati cheklangan hamda o'ziga xos ta'limiy ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan [7]. Ushbu kontekstda, maxsus va inklyuziv ta'limni faqatgina umumta'lim doirasida cheklab qo'ymay, bolalar musiqa va san'at maktablarining (BMSM) estetik-korreksion imkoniyatlaridan keng foydalanish strategik ahamiyat kasb etadi.

Musiqa pedagogikasi va cholg'u ijrochiligi o'zining tabiati e'tibori bilan ko'p funksiyali reabilitatsiya tizimidir. Ayniqsa, fortepiano sinflarida o'quv jarayonini tashkil etish boladan bir vaqtning o'zida kognitiv, sensor, motorik va emotsional analizatorlarning sinxron faoliyatini talab qiladi [3]. Biroq, bugungi kunda BMSM tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishning ilmiy-metodik bazasi to'liq shakllanmaganligi, o'ziga xos ehtiyojli bolalar bilan ishlashda an'anaviy akademik dasturlarning qolipidan chiqish mexanizmlari mukammal emasligi mazkur sohada maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Muammoning qo'yilishi. An'anaviy fortepiano metodikasi asosan sog'lom va standart rivojlanish trayektoriyasiga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan. Jismoniy yoki nevrologik funksiyalarida og'ishlar bo'lgan o'quvchilarga ushbu yuklamalarni to'g'ridan-to'g'ri berish pedagogik regressiyaga va bolada motivatsiyaning so'nishiga olib keladi. Shu bois, maqolada Sherobod tuman 8-son BMSM tajribasi misolida inklyuziv fortepiano sinflari uchun variativ va moslashuvchan amaliy-pedagogik modelni ishlab chiqish muammosi tadqiq etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta'limning umumiy-nazariy va metodologik asoslari xalqaro miqyosda UNESCO (2017) hujjatlarida [1], shuningdek, L.Florian (2019) va C. Tomlinson (2017) singari olimlarning differensiallashgan ta'lim tizimiga oid ishlarida fundamental tarzda yoritilgan [2, 5]. Musiqa ta'limining bolalar intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri S.Hallam (2018) tomonidan neyropedagogik nuqtai nazardan isbotlangan [3]. Uning ta'kidlashicha, musiqa ijrochiligi miya qobig'ining plastikligini (neuroplasticity) oshiradi.

Musiqiy terapiya va inklyuziv muhitda cholg'u o'rgatishning korreksion xususiyatlari M.Silverman (2021) hamda J.Jellison (2015) tadqiqotlarida maxsus tahlil qilingan [4, 6]. O'zbekiston olimlarining ishlarida ham "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020) hamda Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida ushbu muammolar ko'rib chiqilmoqda [7, 8]. Biroq, bevosita fortepiano ijrochiligida texnik apparatni (applikatura, barmoqlar mustaqilligi, agogika) jismoniy kamchiliklari bor bolalarga moslashtirish masalalari hali ham amaliy metodik qo'llanmalarga muhtojdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning amaliy-eksperimental qismi 2025-yil sentabrdan 2026-yil may oyigacha bo‘lgan o‘quv yilida Sherobod tuman 8-son BMSM fortepiano sinfi negizida amalga oshirildi. Eksperimentning obyekti sifatida o‘ziga xos tibbiy-psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega bo‘lgan ikki nafar o‘quvchi tanlandi:

- **O‘quvchi A.S.** (13 yosh, 3-sinf): Tayanch-harakat apparatidagi tug‘ma funksional o‘zgarishlar, barmoqlar mushaklarining gipertonusi (spastika) va mayda motorika (fine motor skills) rivojlanishining orqada qolishi kuzatilgan.
- **O‘quvchi T.A.** (16 yosh, 7-sinf): Bosh miya jarohati (travma)dan keyingi nevrologik asoratlar, tez toliqish, diqqat konsentratsiyasining tarqoqligi va qisqa muddatli musiqiy xotira pasayishi xarakterli holat hisoblanadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi: pedagogik kuzatuv, diagnostik testlash, pedagogik modellashtirish, monitoring va dinamik tahlil. Mashg‘ulotlar har bir o‘quvchi uchun individual tuzilgan dastur asosida haftasiga 3 marotaba, 45 daqiqadan olib borildi. Dars tuzilmasi an‘anaviy fortepiano darslaridan farqli ravishda 3 qismga ajratildi:

1. Psixofizik tayyorgarlik va relaksatsiya (5 daqiqa).
2. Texnik-korreksion qism - moslashtirilgan kombinatsiyalar (20 daqiqa).
3. Badiiy-estetik qism - milliy va sodda pyesalar ustida ishlash (20 daqiqa).

Tizimli pedagogik modelning joriy etilishi. Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta’lim sifatini ta’minlash uchun maxsus to‘rt bosqichli pedagogik model integratsiya qilindi:

1. Klinik-pedagogik diagnostika. O‘quvchining jismoniy va nevrologik imkoniyatlari xaritasi tuzildi. Barmoqlarning harakat radiusi, klaviaturani bosish kuchi va charchash nuqtasi aniqlandi.

2. Individual ta'lim dasturini (ITD) loyihalash. Standart o‘quv dasturi transformatsiya qilindi. Nota matnlari vizual jihatdan yiriklashtirildi, murakkab applikatura (barmoqlar tartibi) sodda, muqobil harakatlarga almashtirildi.

3. Texnik va badiiy materiallarni adaptatsiya qilish (Amaliy bosqich):

- *Gamma mashqlari:* Standart 4 oktavali va parallel gammlar o‘rniga, dastlab bir oktava doirasida, legato va non legato shtrixlarini alohida qo‘llash orqali mushaklar tonusi muvozanatga keltirildi.
- *Hanon komplekslari:* Sharl Hanonning “Virtuoz pianinochi” (The Virtuoso Pianist) mashqlari o‘quvchilarning barmoq tuzilishiga moslab yengillashtirildi. Masalan, 1-mashq faqat o‘ng va chap qo‘lda alohida, sekin tempda va ritmik variantlarsiz, faqat barmoqlarni mustaqil ko'tarish mashqi sifatida bajarildi.
- *Cherni etyudlari:* Karl Cherni (op. 599, op. 299) etyudlarining faqat texnik maqsadga xizmat qiluvchi asosiy qismlari (fakturalari) ajratib olingan holda, qisqartirilgan shaklda o‘tildi.

- *Repertuar:* O‘quvchilarning darsga bo‘lgan hissiy yaqinligini oshirish uchun o‘zbek milliy kuylari (soddalashtirilgan garmoniyada) va eng sodda xalqaro fortepiano pyesalari dasturga kiritildi.
- *Ota-onalar bilan hamkorlik:* Uy sharoitida ota-onalar tomonidan o‘quvchining darsda olgan ko'nikmalarini kunlik 20 daqiqalik tayyorgarlik orqali takrorlash tizimi nazoratga olindi.

4. Dinamik monitoring. Har bir chorak yakunida o‘quvchining jismoniy-funksional va ijodiy o'sishi baholab borildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. 2025/2026-yillar davomida amalga oshirilgan 9 oylik uzluksiz eksperimental pedagogik faoliyat natijasida o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasida quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:

1. Korreksion-motorik sohadagi natijalar (O‘quvchi A.S.). Dastlabki oylarda A.S.da barmoqlarning klaviaturaga spastik (qisqargan) zarbi tufayli tovush hosil qilish jarayoni qattiq va qo‘pol edi. Moslashtirilgan Hanon mashqlari va legato shtrixida gammalarni muntazam chalish orqali bilak va tirsak mushaklaridagi qisqishlar (zajimlar) 40-50% gacha kamayishiga erishildi. Barmoqlarning mustaqil harakatlanishi evaziga sodda pyesalarni kantilena va ohangdor ijro etish ko‘nikmasi shakllandi.

2. Kognitiv-nevrologik sohadagi natijalar (O‘quvchi T.A.). Bosh miya jarohati asoratlari bo‘lgan T.A. darsning dastlabki 15-20 daqiqasidan so‘ng charchab, nota matnini chalkashtirib yuborar edi. Haftasiga 3 marta 45 daqiqalik darsni qisqa intervallarga bo‘lib tashkil etish va har dars boshida musiqiy-didaktik o‘yinlardan foydalanish natijasida uning diqqat konsentratsiyasi barqarorlashdi. Cherni etyudlarining kichik qismlarini yodlash orqali uning qisqa muddatli xotirasi rivojlanib, o‘quv yili oxiriga kelib moslashtirilgan milliy kuylari to‘liq va mustaqil ravishda yoddan ijro etish darajasiga yetdi.

1-jadval

Eksperiment natijalarining qiyosiy tahlili

Baholash mezonlari (Parametrlar)	Eksperimentgacha bo‘lgan holat (sentabr 2025)	Eksperimentdan keyingi holat (May 2026)
Diqqat konsentratsiyasi	Maksimal 10-12 daqiqa uzluksiz barqarorlik	25-30 daqiqa davomida faol diqqatni jamlash
Mayda motorika va spastika	Barmoqlar qisqishi, applikaturani buzish, noaniq zarb	Mushaklar yumshoqligi, shtrixlarni farqlash, aniqlik
Musiqiy matnni xotirada saqlash	Maksimal 4-8 taktli sodda musiqiy jumlalar	16-24 taktgacha bo‘lgan yaxlit asarlarni yoddan ijro etish
Ijtimoiy-psixologik motivatsiya	O‘ziga ishonchsizlik, fobiya, darsdan cho'chish	Faollik, musiqiy ijroga nisbatan yuqori qiziqish

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy texnik mashqlarni (Hanon, Cherni) individual reabilitatsion maqsadlarga moslashtirish inklyuziv ta‘lim samaradorligini multiplikativ ravishda oshiradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim

oluvchining nafaqat BMSM muhitida, balki kundalik ijtimoiy hayotda ham o‘zini to‘laqonli his etishiga zamin yaratadi.

Xulosa.

1. Fortepiano cholg‘usi o‘zining polifoniya imkoniyatlari, vizual simmetrik klaviatura tuzilishi va ijro jarayonida ikki qo‘lning parallel faoliyati tufayli nevrologik va tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun eng universal korreksion-reabilitatsion vosita hisoblanadi.

2. BMSM sharoitida inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati standart akademik talablarni majburiy yuklashda emas, balki individual ta’lim dasturlarini (ITD) moslashtirish, texnik materiallarni (gamma, Hanon, Cherni) o‘quvchining jismoniy imkoniyatlariga ko‘ra transformatsiya qilish hamda ota-onalar bilan uzviy integratsiyani ta’minlashda namoyon bo’ladi.

3. Sherobod tuman 8-son BMSMda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan ushbu to‘rt bosqichli amaliy pedagogik modelni respublikamizdagi barcha musiqiy ta’lim muassasalari inklyuziv sinflari metodik bazasiga tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. (2017). Terms of Inclusion in Education: Status, Trends and Challenges. Paris: UNESCO Education Sector.

2. Florian, L. (2019). On the Cartography of Inclusive Education. International Journal of Inclusive Education, 23(1), 3-17. DOI: 10.1080/13603116.2019.1622801

3. Hallam, S. (2018). The power of music: Its impact on the intellectual, social and personal development of children and young people. London: International Music Education Research Centre (iMERC).

4. Silverman, M. (2021). Music as a healing art in special and inclusive education. New York: Oxford University Press.

5. Tomlinson, C. (2017). How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms (3rd ed.). Alexandria: Association for Supervision and Curriculum Development.

6. Jellison, J. (2015). Including Everyone: Creating Music Classrooms Where All Children Learn. New York: Oxford University Press.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (2020). Toshkent sh., 23-sentabr, O‘RQ-637-son. (Law of the Republic of Uzbekistan “On Education”. (2020). Tashkent city, September 23, No. ZRU-637).

8. O‘zbekiston Respublikasida Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent sh. (Concept for the development of inclusive education in the Republic of Uzbekistan. Tashkent city).